
Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda

Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimovning jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari bilan sayyor qabulida Qo'ng'iro't mahalla fuqarolar yig'ini faollari tomonidan 17-maktabga boradigan o'quvchilarning avtomobil yo'llarida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash yuzasidan qilgan murojaatlari ijobiy hal etildi. Hozirda Buvayda tumani 4P 260a avtomobil yo'lining 8-9 km oralig'ida yo'lning chap qismida harakatlanadigan piyodalar havfsizligini ta'minlash maqsadida 1 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi barpo etilmoqda.

2024-05-14 13:11:27